

**IS'HOQON TO'RA IBRAT HAYOTI VA ILMIY MEROSI. LUG'AT SITTA****"AL-SINA" ASARI BADIY TAHLILI.**

**Toshova Zulfizar zulfiqor qizi Shahrисабз Davlat Pedagogika Instituti Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi.**

**Anatatsiya**

Ushbu maqola orqali O'zbek adabiyotining zabardas vakili ilm marifat nomoyondasi jadidchilik harakati a'zosi xalqi, millatining yuksalishi yo'lida ulkan hissa qushgan butun o'zbek tarixida o'chmas iz qoldirgan o'zbek o'g'loni Is'hoqon to'ra "Ibrat hayot yo'li" va ijodiy merosining yaratilish uning mazmun mohiyati badiiy ilmiy jihatlari izohlandi.

"Lug'at sitta al-sina" asari tahlil qilindi.

**Kalit so'zlari:**

Lug'at silta al-sina, badiiy tahlil, "Jadidchilik" harakatlari, marifatparvarlik.

**Kirish:**

Millatimizning millatligini belgilovchi bosh mezon uning tili va adabiyoti, marifati-modaniyatidir. Til millatning mavjudlik sharti bo'lsa badiiy adabiyot boshqa hech bir xalqqa o'xshamaydigan fitrati, siyrati, ruhiyati aks etadi.

Tarix shohid Tildan, adabiyotdan ayrılgan millat o'zligini yo'qotadi. Tili, ma'rifati, madaniyati yo'lida jonini ayamagan insonlar o'zbek o'g'lонligi ekanligi bizning faxrimizdir.

Bu o'glonlar tomirida adabiyot deb ataluvchi asl chashmadan suv ichmog'i, ma'naviyat, o'zbek deb ataluvchio'q ildizi o'zilmagan bo'lmg'I zarurdur.

O'zbekning o'zbekligi buyuk mutafakkir shoир, adib, falsafiy va sohibquronlar marifatparvar o'g'lонlar yurti ekanlidir.



Xalq ma'rifati yo'lida uning madaniyati ilm tafakkuri, ongli shuvirini o'zligini anglatish yo'lida “**Zadidlar**” nomi ostida birlashgan o'zbek ziyoli o'g'lonlar.

**Fitrat, Qodiriy, Chulpon, Niyoziy, Bexbudiy, Munavvarqori, Ishoqon Ibrat** kabi ko'plab ziyorolar avlodlari ekanligimiz Faxr va g'urur bag'ishlaydi. Ularning bnizga qoldirgan ilmiy meroslari asrlar osha o'z mavqiyini yo'qotmagay. Ilmiy meroslarini boyilish o'z holida saqlash bizning oliy burchimizdir.

Biz kabi yoshlar tomonidan marifatparvar ajdodlarimiz hayot yo'lini ilmiy merosiga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda.

## **Is'hoqon Ibrat hayot yo'li.**

“Shoir, Olim, noshir, pedagog, sayyoj va shoir din arbobi” milliy uy g'onish davrining mashhur islo hatchisi “Jadid” harakat a'zosi Is'haqon Ibrat 1862-yili Namangan yaqinidagi To'raqurg'on qishlog'ida Zunaydullo va Hurbibi oilasida tug'ilgan. Bolaligidan adabiyot va sanatga muhabbat qo'ygan. Boshlang'ich ta'limni o'zining qishlog'ida oladi. 1870-yilda otasi Zunaydulla xo'ja vafot etadi. Qolgan ilmni madrasalarda oladi. 1886-yili madrasalarda tahsilni tugatadi. To'raqurg'onga qaytib keladi. 1887-yilda 25 yoshida onasi Huribibini hajga olib boradi. Biroq Huribibiy haj safaridan qaytmaydi. Opka shamollashi xastaligidan vafot etadi. Bunday dard-alamga chidolmagan Ibrat dard bilan marziya bitadi. 1892-1896 yillarda o'z yurtiga qaytadi. Ibrat hayotining sungi yillari ancha tahlikali o'tadi. 1935-yilning aprel oyida hibsga olinadi Qatag'on qurbaniga aylanadi.

## **Is'hoqon Ibratning ilmiy merosi**

1912- yilda yozuvlar tarixiga bag'ishlangan “Jami' ul xutut asarini yozadi” Matbaayi I'shoqiyada bosmadan chiqadi. 1901 yili Lug'ati sitta al-sina”, “Tarixi farg'ona”, “Ta'rixiy madaniyat”, “Mezon uz-zamon” kabi ilmiy asarlar yaratadi. Hayoti davomida 14 ta ilmiy ko'plab guzal, muxammaslar va sherlar to'plami bo'lmish “Devoni Ibrat” yaratadi.



## “Lug’at sitta al-sina “asari yaratilish tarixi va badiiy ilmiy tahlili”

XIX asr oxiri XX asr bosqlaridan etiboran mahalliy aholi urtasida g’arbiy tillarga bo’lgan ehtiyoj osha boshlaydi.

1902-yili To’raqurg’on qishlog’ida ham shunday maktab ochiladi va bu ma’suliyat To’raxon Ibrat zimmasiga topshiriladi.

Ayni ush davrlarda Ibrat rus tilidan tashqari 10ga yaqin tillarni o’rgangan edi. Xalqning farzandlarini marifati yo’lida izlanishlar olib boradi va ularni chuqurroq tahsil olishlari uchun poydevor sifatida: Arabcha, Ruscha, Forscha, Hindcha, Turkcha, O’zbekcha so’zlardan iborat 6 tillik “Lug’at sitt al-sena” asarini yaratadi.

Muallif aholining asosiy qismi krel harfini bilmaganligi sababli ularga qulaylik nuqtayi nazaridan ruscha so’zlarni ham arab tilida yozadi. Bu asar XIX asrning 90-yillarida yakunlangan bo’lsada chor mamuriyati tomonidan qarshilik taqibtaqib tufayli asar nashri kechiktiriladi.

1901-yilda ancha urinishlardan sung chop etiladi. Asar kitob holatiga kelgunga qadar Ibrat chor hukumatiga 2 marotaba xat yo’llaydi. Bu haqda chor Rosssiya mustamlakasi bo’lgan Turkistondagi matbuot noziri vazifasini bazaruvchi Nikolay Ostroumovning shaxsiy arxiv hujjatlaridagi malumotlar tasdiqlaydi. Bu arxivda Is’hoqon To’ra tomonidan bitilgan maktublar saqlangan.

Birinchi maktubini 1898-yilda yozadi va javob kelavermagach yana maktub bilan qayta urinadi.

Ikkinci maktubini 1900 yil 26-fevralda qayta yuboradi.

Ushbu xat matni shunday edi.

## 1900-yil 26 - fevralda hurmatli Ostroumov To’ra huzurlariga savolnomalar

**Ushbu barobarinda siz ulug’ martabadan utinib suraymanki 1898-yilda sizdan iltimos qilib edim, “Sitta al-sina” degan slovar kitobimni bosma qilmoq uchun marhamat qilib ikki juz yuboring, ko’rmoq uchun degan ekansiz. Darrov amrlariga**



muvofig yuborib edim. Mazkurni hech xabari bo'limgan jihatidan bir iltimos qilib turibmanki, agar nazirlar nazoratidan o'tgan bo'lsa boz qolgan o'n jo'zini ham yuborsam va yoki qabul bulmagan bo'lsa, o'shal nusxani marhamat bilan Namangan mahkamasiga, mening ismimga adres etib yuborsalar, boz bo'lak maslahat qilsak deb, iltimos qiluvchi, Is'hoqxon to'radurman"

Ma'lumki chor hukumi o'z davrida millat ongini uyg'otishidan madaniy siyosiy rivojlanishidan hukumat a'zolari qo'rqardi. Chor tuzum prensipiga to'g'ri kelmasdi. Shu sababli bu kabi asarlarga qarshilik qilinardi. Bu hukumatning asosiy vazifasi edi. Bir necha yillik sarguzashtlardan so'ng Toshkentdagi V.L.Linin bosmaxonada nashr etiladi. Bu asar yaratilishi haqida Is'hoqon Ibrat shunday fikr yuritadi.

**“Sayohat etdugum vaqtlarida Avg'oniston, Hindfiston va Forseston shaharlarida sayohatda bir lison sayohat ahlina yuz oltun barobarunda ishladiki bizda mushahada bo'lib , lisonlar tahsiliga ko'chish edib va ham dahr elina bir nishon qoldirmak fikrla necha muddati madid bir kitob tadvinina jo'stujo' etub va ham olti lisondin murakkab o'ldeg'i uchun “Lug'ati sitta al- sina” tasmiya etub, 2 jild ila tartib etdim.**

### **“Lugat sina al-sina”**

Asar kichik muqaddimadan boshlanib 6 tildagi Ozbekcha, so'zlar qarshisida Arabcha, Forscha, Turkcha, Hindcha jumlalar berilgan.

Bu asar 1000 ortiq so'zlarni o'z ichiga olgan.

5 3 bet 2 qismdan iborat.Lug'at alifbo tartibida tuzilgan har bir harflar kichik boblarni tashkel etgan. 2 qismi 37 bobdan iborat

1 qism

Fellarning noanoaniqligi kelasi zamon shakllari o'rganilib yoritib berilgan.

2 qism



Fellarning boshqa shakllari otlar, kelishig, olmoshlar, kun oy nomlari Oziq-ovqat, narsa predmentlar nomlarini o'z ichiga oladi. Shu jumladan boshqa tillarda tajima qilinadi.

## Natija

Asar o'zbek tilshunosligi fani taraqqiyotida ham muhim kasb etdi. Lug'atlar yaratishda ham dastlabki muhim qadam bo'ldi.

Aytish mumkinki, tafakkurning mazkur "Lug'ati sitta al-sina" asarlari kabi boy ma'lumot asosida katta ehtiyoj samarasi sifatida dunyo yuzini ko'rdi.

## Xilosa

Xalqimiz ma'naviyati ongi tafakkurining yuksaltirish uchun o'lkan hissa qushdi. Bu asar bizning millatimizning millat darjasida kelgunga qadar mustahkam poydevor bo'la oladi. Bu orqali millat farzandlari ilmi tafakkuri yuksaldi o'zligini anglatdi. Bu kabi ilmiy meroslarimiz hozirgi kunda qadar bizning oltin fondimizda saqlanib kelmoqda.

## References

- I. Dolimov, U.Is'hoqxon Ibrat- Toshkent: Sharq 1994.
- II. Is'hoqon Ibrat. Tanlangan asarlar- Toshkent Ma'naviyat 2005
- III. Jadidlar Is'hoqon Ibrat.Toshkent 2022
- IV. Milliy uyg'otish davri adabiyoti Toshkent Ma'naviyat 2006.
- I. Ozbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivsi 1009 jamg'arma 115-ish.
- II. Is'hoqon Ibrat "Lug'at sitta al-sina" Toshkent Ilijin 19.01.2-bet.